



## INGLIZ TILINI O'RGANISHDA QISQA HIKOYALARING O'RNI

**Ahatova Jasmina**

*SamDCHTI Ingliz tili 2 fakulteti Xorijiy til va adabiyoti talabasi*

**Zubaydova Nilufar**

*Ilmiy rahbar*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada xorijiy tillarni o'rghanishda ko'proq foyda beradigan interfaol faoliyatlar haqida so'z boradi, bunda o'z navbatida oliv o'quv yurtida beriladigan ko'plab imtiyozlar va faoliyatlarning eng samarali yo'llarini ko'rishingiz mumkin.

**Kalit so'zlar:** Ayrim xorijiy oliygohlarda masalan ESL yoki EFL ta'lif berishda qisqa hikoyalardan ya'ni (short stories)dan foydalanishni bir qancha yaxshi tomonlarini ta'kidlab o'tadi.

Bularga bir qancha imtiyozlar ya'ni motivatsion adabiy va yuqori darajada fikrlash ya'ni hozirgi zamonaviy tilda (IQ imtiyozlar) kiritilgan. Ilm o'rghanuvchilar qisqa hikoyalarni (short stories) ni o'rghanish orqali barcha darajadagi 4 malakani bilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Oster (1989)<sup>1</sup> adabiyot o'quvchilarga yanada ijodiy yozishga yordam berishini tasdiqlaydi (85-bet).

O'quvchilar o'qituvchilardan turli xil yozish ko'nikmalarini rivojlantirishni o'rghanishi mumkin. Qisqa hikoyalar orqali o'quvchilar o'qituvchilardan qiziqarli dialoglar yozishni Muordok (2002)<sup>2</sup> (9-bet) yoki o'quvchilar yuqori tilni bilish darajasiga erishgan bo'lsa, undan murakkabroq yozish mashg'ulotlarini o'rghanishi mumkin.

Masalan;

A) (Makbet)ingliz adabiyotidan voqeal boshlanishi asosiy rol qahramonlari (major character) va yordamchi rol qahramonlari (minor character) eng yuqori yoki cho'qqi nuqtasi (climax) va voqeanning asta sekin joy joyiga tushishi (falling action)larni tahlil qilish .

B) O'qilgan hikoya umumiy qisqa tushuncha:(summary) yoki (plot) berish

C) Hikoyada asosiy qahramonlar yaxshi xarakter egasi (antagonist) yomon xarakter egasi (protagonist)ni tahlil qilib berish.

Bundan tashqari o'quvchilar so'z boyliklarini oshirish, yangi so'z o'rghanish va o'qishlarni yaxshilashda nafaqat o'z ona tillaridagi balki chet tillarida ham to'g'ri talaffuz qilish (pronunciation) ni ingliz tilida rivojlantirishda qisqa hikoyalardan foydalanishlari mumkin.

Lao va Krashen (2000)<sup>3</sup> Gonkongdagi universitetda adabiy matnlarni o'qigan talabalar guruhi va adabiy bo'limgan matnlarni o'qigan ikkichi guruh o'rtasidagi



taqqoslash natijalarini taqdim etadilar. Baland ko'rsatgich badiiy matnlarni o'qigan guruhda ya'ni lug'at va o'qishda yaxshilanish ko'rsatgichini ko'rsatadi. Bunaqa mashg'ulotlar shakli ma'nosi va to'g'ri foydalanganligiga bog'liq.

Masalan: A ustundagi har bir so'z iboralarga eng mos keladigan ta'rif ustunini B ustuniga yozing.

A) B)

1) Aquatic

j) Strong effect

2) Array

a) Natural World

3) Defense

e) Living in the water

4) Deforestation

m) Removal of trees from large area

5) Environment

d) loss of sail from action of water or wind

6) Erosion

o) Disappear

7) Extend

h) A natural a area where plant lives

8) Fell

b) To reach past , get bigger

9) Habitat

c) A large number, a collection

10) Vanish

r) Protection

O'quvchilar ushbu faoliyatdan A ustundagi so'zlar va iboralar o'qigan hikoya yoki matnlaridan topishadi. B ustundagi ta'riflar yoki sinonimlar bir xil ma'no yoki konnteksda hikoya konnteksdagi so'zlar, iboralar ma'nosiga o'quvchilarni boshqa konnekstli iboralarni qanday foydalanish mumkinligini va ma'nosiga mos kelishini, tushunchasini o'zlashtirishga yordam beradi. Yangi so'zlar va lug'atlar o'quvchilarni tushunishga va o'zlashtirishga yordam beradi. O'quvchilarni adbiy elemetlar bilan tanishtirish ularni o'qishini va tushunishini mustahkamlaydi. Adabiy matnlar o'rta va yuqori darajadagi ta'lim oluvchilaarga ham foyda beradi. Qisqa hikoyalar va adabiy matnlarni o'qish bilan talabalar nafaqat tushunchalarini ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ladilar, balki gapirish va nutq so'zlashni rivojlantiradilar. Oster ta'kidlaganidek "Adabiyot nuqtai nazariga e'tibor qaratish o'quvchilarning dunyo qarashini kengaytiradi va vaziyatini ko'rishni turli usullarini dramatiklashtirish orqali tanqidiy fikrlashini (Critcal thinking) ni rivojlantiradi" (85-bet)<sup>4</sup> Shuning uchun talabalar o'qiyotganida ular hikoya va matnlar bilan o'zaro munosabatda bo'lishadilar. Vandrick (1997)<sup>5</sup> talabalar bilan adabiyotdan foydalanish ro'yxatiga ko'ra, adabiyot o'quvchilarni "boshqalarning his-tuyg'ularini boshdan kechirish orqali o'z his-tuyg'ularini o'rganishga" undaydi (1-bet).

Talabalarning tilni bilish darajasiga mos keladigan hikoyalarni tanlab, o'qituvchilar "Qoniqarli dars berish" dan qochishadi (Schulz, 1981, 44-bet)<sup>6</sup>. Talabalarning xohishlariga ko'ra hikoyalarni tanlash uchun hikoyalar turli



mavzularga ega bo'lishi kerak, chunki Akyel va Yalchin (1990)<sup>7</sup> ta'kidlaganidek tashqari, mavzularning xilma-xilligi ko'plab odamlarning qiziqishlari va didiga qarab turli xil narsalarni taklif qiladi (178-bet).

### **Qisqa hikoyalar orqali o'quvchilarining madaniyat bilan tanishishi**

Qisqa hikoyalarni o'qish orqali o'quvchilar ma'lum bir xalq yoki davlat madaniyati bilan tanish bo'lish, ularni milliy an'analarini o'rganish imkoniyatini beradi. Madaniyatni o'rganish orqali o'quvchilar ma'lum bir xalqni o'tmish va buguni urf odati bilan tanishadi va odamlar ta'rixini va ularni hurmat qilishga o'rgatadi. Talabalr o'z madaniyatini bilgan holda boshqa bir xalq madaniyatini o'qiganda talabalarga ular o'rtasidagi farqlanish va madaniyatlararo taqqoslash boshlanadi.

### **Yuqori darajada ya'ni (IQ)darajasini qisqa matnlar orqali rivojlantirish**

Oliy va o'rta darjadagi talabalar o'z o'qiganlarini fahmlab tahlil qila oladilar va ularda tanqidiy fikrlash(critical thinking) qobilyati boshlanadi. Young (1996)<sup>8</sup> kollej o'quvchilariga tanqidiy fikrlashni joriy qilish uchun bolalar hikoyalaridan foydalanishni muhokama qiladi. Uning fikricha, "hikoyalar an'anaviy tarkibga nisbatan ikkita muhim afzallikkarga ega:. Birinchidan, ular qiziqarli bo'lgani uchun o'quvchilarining keng qamrovli qo'rquvi pasayadi va ular boshidanoq tanqidiy fikrlashni o'rganadilar.

Ikkinchidan, "hikoyalar tanqidiy fikrlash masalalarini oson esda qoladigan kontekstga qo'yadi" (90-bet).

Bloom va boshqalar tomonidan kiritilgan (1956)<sup>9</sup>, fikrlash qobiliyatları Bloom taksonomiyası deb nomlangan. O'qituvchilar talabalarni darajalari bilan tanish bo'lib ulrni oliy yoki o'rta darajaga moslashtirib fikrlashlarini rivojlantirishi mumkin. Masalan; boshlang'ich bosqichidagi talabalr ya'ni (beginners) yangi o'rganuvchi bo'lganliklari va faolliklari tufayli ma'lumotlarni yaxshi eslab qolish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuning uchun ular qisqa hikoyalarni o'qish orqali joy, voqealar, sana va qahramonlarning ismlarini, voqeaneing rivojini anniq va ravshan eslab qoladilar. Bu darajada ular o'z fikrlarini taqqoslash, bayon qilish, qiyoslashva ravon aytib berish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Shuning uchun ular hikoyalarni o'qiganlarida hikoya haqida uning rivoji, asosiy qahramonlari(major character)yordamchi qahramonlar(minor character)syujeti va hikoyaning kulminatsion nuqtasi(climax)haqida, savol qabul qilsalar qiyinchiliklarsiz javob bera oladilar.

### **XULOSA**

Adabiyot o'quvchilarining "Til va Kognetiv" qobiliyatları madaniy bilimlari va sezgirlikni kengaytirishga yordam beradi (Shanahan, 1997,165-bet). Qisqa



hikoyalarni ingliz tilida gapishtirish va o'qishni tushunishda bir qancha tadqiqotlar olib borib real natijaga erishilgan masalan: Turkiyaning Van viloyatidagi o'rta maktablarida 13-14 o\quvchilarda 4 haftalik ingliz tilidan qisqa hikoyalik ko'nikmalar o'qitilgan ulatrning natijalari 4 haftalik davr oxirlarida shuni ko'rsatadiki yosh talabalar qisqa hikoyalarni ingliz tilida o'rganishda nutq muammolarini kamaytiradilar va o'z o'rtacha muvofaqiyat darajalarini oshiradilar. Shunday ekan qisqa hikoyalarni o'quv dasturlariga kiritish talabalarga har tamonlama yordam bo'ladi va yetuk mutaxasis bo'lishiga yordam beradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. Murdoch, G. (2002). Exploiting well-known short stories for language skills development. IATEFL LCS SIG Newsletter 23, 9-17.
2. Lao, C. Y. and S. Krashen. (2000). The impact of popular literature study on literacy development in EFL: More evidence for the power of reading. System, 28, 261-270.
3. Oster, J. (1989). Seeing with different eyes: Another view of literature in the ESL class. TESOL Quarterly, 23(1), 85-103
4. Vandrick, S. (1997). Reading and responding to novels in the university ESL classroom. The Journal of the Imagination in Language and Teaching, 4. Retrieved January 27, 2003, from
5. Schulz, R. A. (1981). Literature and readability: Bridging the gap in foreign language reading. The Modern Language Journal, 65, 43-53.
6. Akyel, A. and E. Yalçin. (1990). Literature in the EFL class: A study of goal-achievement in congruence. ELT Journal, 44(3), 174-180.
7. Young, A. (1996). Introducing critical thinking at the college level with children's stories. College Teaching, 44(3), 90.
8. Shanahan, D. (1997). Articulating the relationship between language, literature, and culture: Toward a new agenda for foreign language teaching and research. The Modern Language Journal, 81, 164-174.